



JANNAT ONALAR OYOG'I OSTIDA

Rejissiyor : Ruslan Akun

2-kurs Kinoshunos

Erkinboyeva Sevinch

“Jannat onalar oyog'i ostida “ filmining mavzusi tomoshabinni eng nozik tuqtasi sifatida tanlangan . Filmning boshlanishidanoq tomoshabin qirg'iz muhitiga tushadi. Haqiqiy qirg'iz qishloq oilasining hayoti , urf odatlari , milliy taomlari , o'zgacha kiyimlari , musiqiy ohangi bilan jalb qiladi . Film nega aynan bunday nomlangan ? Bu nomga haqiqatda munosibmi ? degan savollar ham berilishi mumkin . Filmga bunday nom berilishiga sabab onalarning mehir –muhabbati , chin matonati , bolalari uchun jonini bera olishini chin ma'noda isbotlay olishi deb o'ylayman . Haqiqatdan ham bu film o'z nomiga munosib olingan, buni nafaqat men balki zalda o'tirgan barcha tomoshabinlarning ko'z yoshlari isbotlaydi . Filmning mavzusi onaning matonati , nogiron o'g'ilning onasiga nisbatan buyuk sevgisi , insonlarning munosabatlari .G'oyasi esa , hayotdagi barcha insonlarning insoniylik his tuyg'ulari , millatlar aro hamjihatlik , suriyadagi keskin urushlar va ular sababli begunoh o'lib ketayotgan insonlar taqdiri, dinga bo'lgan muhabbat , chin musulmonlik yotadi. Filmning ekspozitsiyasida ya'ni kirish qismida , qahramonlarni tanishtirish bilan birga haqiqiy qirg'iz millatining balki bizlarning ham (butun O'rta Osiyodagi) oilaviy yashash sharoitini juda go'zal tarzida aks ettirilgan . Tandirgan chiqqan issiq nonlar , tabiiy qaymoq , quyosh rangini eslatuvchi novvotlar ...Onaning xarakterini birinchi sahnadanoq bilishimiz mumkin , ya'ni qo'llarini duoga ochgancha o'g'li uchun yaxshilik tilardi , bundan onaxonning iymonli , shu yoshgacha faqat bolasi uchun kun kechirgan , doim unga yaxshilikni ravo ko'rgan ona obrazi sifatida gavdalandirilgan . Bolani esa onasi uchun jannatga birga kirishligini aytganida uni onasidan insoniylik tuyg'ularini



o'tganligini , nogiron bo'lsada onasiga bo'lgan buyuk sevgisini ko'rsatib beradi. Filmda tugun , bola onasiga Makkaga boramizmi ona deb aytganida tushadi , onasi esa unga rad javobini beradi , bu esa tomoshabinga ular Makkaga borishadimi , yo'qmi degan savollarni beradi . Ularga bu yo'lda juda ko'p qiyinchiliklar va to'siqlar tushadi va bu onaning va bolaning xarakterini ochilishiga , ularning o'zgarishiga sabab bo'ladi .

Filmning kulminatsiyasi , ona va bolaning Makkaga borish uchun bo'mbali zonani bosib o'tish sahnasi hisoblanadi. Ular shuncha yo'l bosib o'tib , lekin ozgina qolganda ularga ruhsat berishmasa ham bu hayotlari uchun havfli bo'lsa ham , ular maqsadidan voz kechmasliklari filmning eng cho'qqisi bo'ldi . Ular tirik qolishadimi yoki yo'q ? Bu filmni eng o'yga soladigan , ta'sirlantiradigan qismi.Filmning yechimi esa, onaning o'g'liga bor haqiqatlarni oshkor etishi . U o'g'liga haqiqiy o'g'li emasligini , haqiqiy onasi boshqa ekanligini aytadi . Bu juda og'ir sahna , ona uchun bu eng og'iri , garchi u o'zini o'g'li bo'lmasada u o'g'li uchun butun bir umrini sariflagan . Va ohirida esa bu haqiqatlarni oshkor etib , o'g'li qanday munosabat qilishini kutish , bu eng ta'sirli yechim sifatida tasvirlangan. Eng asosiy oliy maqsadiga erishish ya'ni Makkaga yetib u yerda ibodatlarni qila olishi bu tugunning yechilishi hisoblanadi . Filmning janri maishiy va drama.Filmdagi ona obraziga nisbatan mehrni oshiruvchi sahna , o'g'lining tanasidan bombani tunu-kun qo'lari qavargan holda bo'lsada qiynalib yechishi bo'ldi , bu sahna onaga nisbatan mehrni oshishiga katta sabab bo'ldi . Bu sahnada aynan onaning matonati qay darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin . Filmdagi bola obraziga nisbatan mehr-muruvatini uyg'otuvchi sahna esa , bolaning onasini jannatga olib kirish uchun harakati va onasi haqiqatni aytganda ham “menga boshqa ona kerak emas “ degan so'zlari bo'ldi. Filmdagi yana bir narsani inobatga olib o'tishimiz darkor , bu bir nechta mamlakatlar bilan hamkorlikda va hamjihatlikda ishlagani bo'ldi . Bu davlatlar : O'zbekiston , Turkiya , Qozog'iston , Suriya . Bularning ichida O'zbekiston ham ishtirok etgani bizning ham yutug'imiz



. Bizning ham eng yaxshi aktyor va aktrissalarimiz ishtirok etishgan . Nafaqat biznikilar balki barcha aktyor va aktrissalar o'z rollarini juda mahorat bilan ijro etishgan . Ona rolidagi qirg'iz aktrisasi onaning his tuyg'ularini ,ko'z qarashlarini , xarakterini yaqqol ochib bergan . Nogiron bola rolini ijro etgan aktyorga ham qo'il qolmasdan ilojimiz yo'q ! Garchi nogiron bo'lmasada bu rolni maromiga yetkazib o'ynay olgan . Filmdagi ranglar , o'ta chiroyli va maromida tanlangan. Ular filmni yanada sifatli chiqishiga katta sabab bo'lgan. Filmdagi lokatsiyalar esa juda ajoyib . Har bir mamlakatning eng go'zal joylarini topib suratga olishgan. Qirg'izistonning eng go'zal tabiatini , O'zbekistonning qadimiy va go'zal binolarini, Turkiyaning juda chiroyli joylarini topa bilishgan. Musiqalar ham qahramonlarning ichki his tuyg'ulariga mos ravishda tanlangan. Kiyimlar esa milliylik va zamonaviylik asosida yaratilgan . Zamon bilan hamnafas . Grim va qonli sahnalar , bular ham juda ishonarli va professional ravishda qilingan . Misol qilib, bolaning Suriyadagi yomonlar urishganida qilingan grim . Rejissiyor yana bir narsani ilgari surgan , Suriyaning vayronakorligi bo'lgani bilan , uni ichida hali hanuz qalbi go'zal yaxshi insonlar qolgan . Buni ona va bola bilan birga suratga tushgan yigitlar , ularni uyiga kiritgan kishi , ularga yordam qo'lini cho'zganlar yaqqol isbotlaydi .Zero insonlarni bilish uchun uni ichki dunyosiga ham nazar solishimiz darkorligini bizga eslatadi . Bu filmdan juda ko'p narsalarni olishimiz mumkin , haqiqiy film ham ana shunday bo'lmaydimi aslida ? Barcha insonni yig'lashiga sababchi bo'lgan bu film kelajakda juda ko'p yutug'larga erishadi . Yana barcha uchun manzur va manifaatli bo'lgan ana shunday filmlar ko'payishini kutib qolamiz.